O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI


**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI**

**“IQTISODIYOT” kafedrasi**

**5230100-“Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi**

**38-11-guruh talabasi**

***Rajabov Akmal***ning


# “HUDUDNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI KOMPLEKS BAHOLASH”

mavzusida bajargan

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI


Rahbar: **“IQTISODIYOT”** kafedrasi o’qituvchisi **MAHMUDOVA G.R.**


**Guliston – 2015**

Bitiruv malakaviy ishi Guliston Davlat Universitetining 2015 yil 15 apreldagi 137-S-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan Davlat attestatsiya komissiyasining ____–sonli yig’ilishida muhokama qilindi va “____” ball bilan (__________) baholandi.

(a’lo, yaxshi, qoniqarli)

Bitiruv malakaviy ishi “Ijtimoiy-iqtisodiy” fakultetning 2015 yil “____”____________dagi ____–sonli Ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan Davlat attestatsiyasi komissiyasiga himoya qilish uchun tavsiya etildi.

**Fakultet dekani:** **A.Mamatov**

Bitiruv malakaviy ish “Iqtisodiyot” kafedrasining 2015 yil “____”____________dagi ____–sonli yig’ilishida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.

**Kafedra mudiri:** **O.Sattorqulov**

BMI bajaruvchi “5230100-“Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi 38-11-guruh talabasi ______________ Rajabov A.

Rahbar “Iqtisodiyot” kafedrasi o’qituvchisi ___________ **MAHMUDOVA G.R.**

## MUNDARIJA

**KIRISh…………………………………………………………………… 3**

**I BOB. HUDUDLAR IJTIMOIY – IQTISODIY RIVOJLANISHINING KOMPLEKS BAHOLASHNING NAZARIY – USLUBIY ASOSLARI…………………………………………………... 6**

1.1. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari……..……………………………………………………………… 6

1.2. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholashning asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari…………………………………………………………………………….. 14

**II BOB. SIRDARYO VILOYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI HOZIRGI HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH……………………………………… 23**

2.1. Hududning umumiy tavsifi va xususiyatlari…………………………………………………………………….. 23

2.2. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlarining tahlili…………………………………………………………………………….. 27

2.3. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash va kelgusi dasturlarda foydalanish yo'llari…………………………………………………………………………... 43

**III BOB. SIRDARYO VILOYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI KOMPLEKS BAHOLASHNING ISTIQBOLLARI…………………………………………………………... 49**

3.1. **SIRDARYO VILOYATINING** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi asosiy muammolar…………………………………………………………………….. 49

3.2. **SIRDARYO VILOYATINING** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognozlash………………………………………………………………………… 56

**XULOSA VA TAKLIFLAR…………………..……………………………… 69**

**FOYDALANILGAN ADABIYO'LLAR RO'YXATI……………………… 73**

**ILOVALAR**

## KIRISh

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalgam oshirilayotgan islohatlar mamlakatimizni makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashga hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish asosida milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirish, mintaqalar rivojlanish darajadagi nomutanosibliklarni bartaraf etish dolzarb muammo sanaladi. Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda hududlar o'rtasida rivojlanish darajasi, tabiiy-iqtisodiy salohiyat, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasining shakllanishi, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida jiddiy farq borligini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Aynan ana shu masalalarda Prezidentimiz I.A.Karimov atroflicha to'xtalib, "Bugun mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakillantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantrish bo'yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi infratuzilma tarmoqlarini yaksak sur'atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog'liq ekani haqida gapirishning holati yo'q, deb o'ylayman" deb tadidlab o'tdilar. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi sohalar tizimi va hududlarda yuzaga keladigan ijobiy o'zgarish hamda o'sish sur'atlariga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan alohida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Ishning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarining nazariy, uslubiy asoslari Respublikamizning bir qancha iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlarida yoritilgan. Jumladan, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining alohida masalalari G.K.Saidova, V.Golishev, A.Nabixodjaev, S.S.G'ulomov, N.To'xliyev, S.S.Hayitov, A.A.Abdug'aniyev, I.Q.Nazarov, A.A.Abdullayev, M.A.Oripov, O.M.Rahmonqulov, A.M.Sodiqov, G.P.Erkaeva va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hozirgi holatini kompleks baholash, kelajakda uni yanada rivojlantirish yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishdir.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**

- Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning nazariy asoslarini o'rganish;
- Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy usul va yo'llarini tadqiq qilish;
- Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyati hamda uni rivojlantirishning istiqbollarini o'rganish;
- hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasini baholashl;
- Hududda ijtimoiy sohani rivojlanishi va aholining turmush darajasi asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- Hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimini investitsion jozibadorligini yuksaltirish yo'llarini aniqlash;

- Hududning eksport salohiyatini oshirish va uning asosiy omil va yo’nalishlarini belgilash.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti** sirdaryo viloyati hududi xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining predme’ti.** Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida hududlarni kompleks rivojlanishini ta’minlash masalalari tadqiqotning predme’ti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslarini.** O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning ilmiy asarlari va amalda qo’llanilayo’lgan O’zbekiston Respeblikasi qonunlari tashkil qiladi. Shuningdek, ilmiy izlanishning olib borish uchun iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga oid Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari me’yoriy hujjatlar sifatida qabul qilinadi.

**Bitiruv malakaviy ishining yangiliklari quyidagilardan iborat:**

- Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga kompleks baho berilganligi;

- Hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlanganligi;

- Hududda ijtimoiy rivojlanish va aholi turmush darajasini tahlil qilinganligi hamda mazkur sohalarni rivojlantirish yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqilganligi;

- Hududda aholi bandlik darajasini yuksaltirish va yangi ish o’rinlarini yaratishda qo’shimcha imkoniyatlardan foydalanish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishi doirasida olib borilgan tadqiqotlar asosida tayyorlangan xulosa va takliflarning amalga tadbiq etilishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyo’llar ro’yxati hamda ilovalardan iborat.

# I BOB. HUDUDLAR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI KOMPLEKS BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.

## 1.1 Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.

Mamlakatning izchil iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan undagi hududlarning rivojlanish suratlari va darajasiga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston hududlarining mutanosib barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi – makroiqtisodiy barqarorlikning, milliy iqtisodiyot tadrijiy rivojlanishining asosidir. Bu barcha hududlar manfaatlariga mos keladigan iqtisodiyotning samarali tuzilmasi shakllantirilishini taqozo etadi. Hududiy rivojlanishning nazariy jihatlarini chuqurroq o'rganish asosida erkinlashtirish sharoitida mamlakatimiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi amalda ro'yobga chiqarilishi zarurligini belgilab beradi.

Mustaqillik yillarida sobiq  SSSRdan qolgan hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish, mintaqalarning tabiiy va mineral xomashyo resurslaridan, mavjud ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va eksport salohiyatidan samarali va oqilona foydalanish maqsadida mintaqalarni proporsional, mutanosib rivojlantirishni ta'minlash O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi deb belgilandi. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov ta'kidlanilaganlaridek, "Iqtisodiyotimizning hududiy tarkibini takomillashtirish, foydalanilmayo'lgan resurslar va iqtisodiy imkoniyatlardan yuqori darajada va samarali foydalanish, shakllanib qolgan hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish hozirgi kundagi eng muhim masala – ishsizlikka qarshi samarali kurashish imkonini beradi".

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi to'g'risida fikr yuritganda ular bilan bog'liq nazariyalarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Hududiy o'sish nazariyalarini ko'rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – hududlarda iqtisodiy o'sish modellarini qo'llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o'sishi izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o'xshatish mumkin. Ikkinchisi esa, alohida korxona va firmalarning hatti – harakatlarini tahlil etishga asoslangan. Chunki hududlarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatigina aniqlab beradi. Ushbu nazariyalar bilan ham iqtisodiy geografiya mutaxassislari, ham iqtisodchilar shug'ullanishgan. Turli mamlakatlarda hududiy nazariyalarning turli yo'nalishlariga ustuvorlik berilgan. Hududiy nazariyalarni o'rganish mamlakatimizda ishlab chiqilayo'lgan va amalga oshirilayotgan hududiy tartibga solish tadbirlari uchun uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. O'tgan asrning 70-yillarigacha "iqtisodiy rivojlanish" deyilganda mamlakatning ishlab chiqarishni aholi o'sish suratlaridan yuqoriroq suratlarda oshirish qobiliyati tushunilar, rivojlanish jarayonining miqdoriy o'lchovi sifatida "iqtisodiy rivojlanish darajasi" tushunchasi xizmat qilar, u mamlakat milliy daromadini uning aholi soniga bo'lish orqali aniqlanar edi. YaMM va YaIM ning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmining miqdoran tez o'sishi farovonlik mezoni deb hisoblandi. Kambag'allik, ishsizlik va daromadlar taqsimo'lini rivojlantirishni

jadallashtirish masalalari keyingi o’rinlarga qoldirildi. Hozirgi kunga kelib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish deb, mamlakatda ishlab chiqarish, bandlik darajalarini orttirish va ishsizlik, inflyatsiya darajalarini pasaytirish imkoniyatlarining kengayishiga aytiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tufayli mamlakatda iqtisodiy o’sish ta’minlanadi va shu asosda o’sib boruvchi ehtiyojlar qondira boriladi. Buning evaziga mamlakatda cheklangan turli xil resurslardan samarali foydalanib, ko’proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko’rsatish ta’minlanadi. Bu esa bozorlarda mahsulot turlarining ko’payishi va narxlarning barqarorligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish aholini ish bilan ta’minlash, pulning qadrsizlanishini oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilishning asosiy shartidir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nazariyasi makro iqtisodiyot darajasida tahlil qilinib, uning sohalari, ko’rsatkichlari, omillari o’rtasidagi bog’lanishlarni, iqtisodiy o’sish yo’llarini aniqlab ko’rsatadi va davlatning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatida ilmiy asoslangan bolib xizmat qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish – ko’p o’lchamli jarayon bo’lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotida o’z ifodasini topadi.

Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish aholining turmush darajasini ko’tarish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, hududlardagi xomashyo bazasi va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish bilan bog’liq bo’lgan muammolarni faqat o’rta va uzoq muddatga mo’ljallangan dasturlar va istiqbol rejalari orqali hal etish imkonini beradi. Mamlakat doirasida ishlab chiqilgan hududlarni kompleks rivojlantirish yagona strategiyasi har bir hududning o’ziga xos tabiiy-iqtisodiy salohiyatiga to’g’ri keluvchi strategiyaga asoslangan bo’ladi. (1.1.1 - chizma).

**Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning milliy Streategiyasi**

**Mamlakat doirasida hududlarni kompleks rivojlantirish Satrategiyasi**

**Qoraqalpog’iston Respublikasi va viloyatlarni kompleks rivojlantirish startegiyai**

**Shaharlar va hududlarni kompleks rivojlantirish strategiyasi**

**1.1.1 - chizma. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish strategiyasi**

**Manba:** Erkaeva G.P. “Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining strategic yo’nalishlari ” iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand, 2008-yil. 25-be’t.

Ilmiy asoslangan strategiyaning maqsadi – ma’lum ichki va tashqi mablag’ va resurslarni jamlab safarbar qilgan holda, hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va uning barqaror iqtisodiy o’sishi hamda aholi turmush darajasini yuksaltirishga erishishdir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nafaqat miqdor balki muayyan sifat o’zgarishlari shaklida ham namoyon bo’ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish suratlari uning mezonlariga va eng avvalo, sifat ko’rsatkichlariga ko’proq e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o’sishlar iqtisodiyotimizda yuz berayo’lgan tarkibiy o’zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun ximat qilish, xalqimizning hayo’l darajasini yuksaltirishga, bir so’z bilan aytganda, amaliy hayo’limizni yaxshilashga olib keladi.

Jahon tajribasi ko’rsatmoqdaki, iqtisodiyotni davlat tomonidan samarali boshqarishga mahalliy xususiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari tomonidan hal e’tilgandagina erishiladi. Bunda respublika hokimiyat organlari e’tibor umummilliy xususiyatdagi qarorlarni qabul qilish, iqtisodiyot rivojlanishining istiqbolli yo’nalishlarini aniqlash va shu asosida faoliyat ko’rsatish, qonunni himoya qilish va himoyalash kabi ishlarga qaratilgan bo’ladi. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish zaruriyati ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni (bandlik, ijtimoiy himoya, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) o’zlariga biriktrilgan daromadlar manbalari hisobga hal etishda ko’proq erkinlik va vakolatlar berilganda yuzaga keladi. Ijtimoiy jihatdan yo’naltirilgan bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining turmush farovonligini oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Respublikamizda ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlat mustaqilligining iqtisodiy asosi sifatida olingan bo’lib, ijtimoiy taraqqiyo’lning hozirgi sharoitlariga eng ko’p darajada mos keladi. Bunday ko’rinishdagi bozor iqtisodiyoti korxonalarni va jismoniy shaxslarning ish faoliyatlarini davlat qonunlari, huquqiy kafolatlar asosida, moddiy rag’batlantirishlar asosida olib borishni ta’minlashi lozim. Barcha turdagi mulklarning qonuniy va huquqiy asosda tengligini, ish yurituvchilar erkinligini respublikadagi milliy an’ana, urf-odat va qadriyatlarni e’tiborga olishi insonlarning faoliyatlarini to’liq shart-sharoitlar bilan ta’minlashi lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o’tish davr siyosatining tayanchi va iqtisodiyotni tubdan isloh qilishning asosi bo’lmish beshta muhim va mashhur tamoyilni ishlab chiqdi. Ularning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

Birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak; u biror mafkuraga bo’ysundirilishi mumkin emas. Buning ma’nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiyot munoasbatlarni mafkuradan holi qilish zarur;

Ikkinchidan, davlat bosh islohotchi bo’lishi lozim. U islohotning ustuvor yo’nalishlarini belgilab berishi, o’zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va undan izchillik bilan o’tkazishi, jaholatparastlar (re’togradlar) va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart;

Uchinchidan, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etish lozim;

To'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib qoldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi;

Beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi "Inqilobiy sakrashlarsiz", ya'ni evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Buning ma'nosi shundan iboratki, respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish, bozor munosabatlarini o'rnatish ma'lum qiyinchiliklarsiz amalga oshmaydi. Ammo bu davrda aholining manfaatlarini himoya qilish kuchayishi kerak. Buni faqat kuchlar qayta taqsimlash vositasiga asoslangan davlatgina amalga oshirishi mumkin. Davlat iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashishi, uning tashabbuskor bo'lishi va izchillik bilan amalga oshirilishi lozim. Buning uchun davlat iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlarini ishlab uni tatbiq etishi, nazorat qilish kabi vazifalarni bajarish uchun maxsus idoralariga ega bo'lishi kerak. Shundagina davlat islohot jarayonining barcha bosqichlarida yetakchi islohotchi ekanligini tasdiqlashi mumkin. Davlat ishlab chiqarishga iqtisodiy vositalar bilan, iqtisodiyotni tushungan holda, belgilangan maqsad sari boshqara boradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston mintaqalari rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning bosh maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha keskin tafavutlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida hududlarni barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish va qo'llab – quvvatlashdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalar ko'zda tutiladi:

- mamlakat barcha hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish;
- hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish;
- ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi va ularni joylashtirishdagi asossiz nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- hududlarni oqilona xo'jalik ixtisoslashuvini ta'minlash va hududlararo iqtisodiy aloqalarni maqbullashtirish;
- mintaqalararo va tashqi iqtisodiy integratsiyam ayrim hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ajralib qolishga yo'l qo'ynaslik va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Konistitutsiyasi, Qonunlar va qonunosti hujjatlari hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning huquqiy shakllari hisoblanadi. Ammo, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi iqtisodiyotning asosiy qonunlarini ishlab chiqish bilan mashg'ul ekanligi tufayli, mamlakatimiz hududlari rivojlanishini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, hukumat qarorlari va farmoyishlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ijroiya hokimiyatning hududlar rivojlanishini tartibga solish bo’yicha tashkiliy-institutsional tuzilmasi bir qator vazirlik va idoralar ishtirokida Vazirlar Mahkamasi tomonidan shakllantiriladi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yagona siyosati Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Iqtisodiyotning ayrim sektorlari va tarmoqlari bo’yicha hududiy rivojlanish muammolari bilan Markaziy bank, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo vazirligi va boshqalar shug’ullanadi. Mustaqillik yillarida Respublikamizda hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishni davlat tominidan tartibga solish quydagi yo’nalishlarda amalga oshirildi:

- mintaqalar, hududlar va bir guruh hududlarni kompleks rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- mineral homashyo resurslarini kompleks o’zlashtirish, yer suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilish;
- sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning respublika va hududiy dasturlarini ishlab chiqish, eski ishlab chiqarish quvvatlarini qayta iqtisoslashtirish horijiy investitsiyalarni ideal qilish asosida yangi zamonaviy korxonalar qurish;
- mahalliy tabiiy iqlim xususiyatlari asosida qishloq xo’jaligida islohotlarning chuqurlashtirishning respublika va hududiy dasturlarini ishlab chiqish, hududlar qishloq xo’jaligini ihtisoslashtirish;
- bandlik, ijtimoiy infra tuzilmani rivojlantirish, qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta’minlash va boshqa respublika dasturlarini amalga oshirish;
- Respublika va mahalliy boshqaruv tizimini boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- Mahalliy budje’tni mustahkamlash, hududlarga do’latsiya va subvensiyalar ajratish;
- Qulay hududiy-xo’jalik boshqaruv tizimini tashkil etish maqsadiga mamlakatning ma’muriy-hududiy bo’linishni takomillashtirish.

Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishni tartibga solish makro-mikro darajada qo’llaniladigan tur bevosita va bilvosita, ma’muriy, huquqiy va iqtisodiy mexanizimlarda foydalangan holda turli vositalarni qo’llashni talab etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani isloh qilish hamda yuksaltirishning respublika maqsadli tarmoq, tarmoqlarao va hududiy dasturlar ishlab chiqish va ular asosida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan hududiy dasturlar ishlab chiqish muhim rol o’ynaydi. Ularni to’rt guruhga ajratish mumkin:

1. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ko’p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, hududlarda to’laqonli bozor infratuzilmasini tashkil etishga yo’naltirilgan institutsional o’zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan dasturlar.

2. Asosiy sanoat tarmoqlarini, qishloq xo’jaligi va iqtisodiyotning boshqa real sektorlarini rivojlantirish, investitsiya va tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, tabiiy iqtisodiy salohiyatdan oqilona foydalanish, transportkommunikatsiya va ishlab

chiqarish infratuzilmasi hamda uning boshqa sohalarini to'liq shakllantirishga yo'naltirilgan dasturlar.

3. Ijtimoiy tarmoqni rivojlantirish dasturlari: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, kasb-hunar kollejlari va litseylarini tashkil etish hamda ularning moddiy-texnik ta'mino'lini mustahkamlash, umumta'lim maktablarini rivojlantirish, sog'liqni saqlash va kommunal xo'jalikni qayta shakllantirish, qishloq ijtimoiy infratuzilmasini shakllantirish, chakana savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish.

4. Hududlar va ayrim hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

Makroiqtisodiy dastaklar muayyan hududlarda iqtisodiy subyektlar faoliyatiga ta'sir qiluvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Bular sirasiga imtiyozli soliqlar, bojxona imtiyozlari, kredit berish va boshqalar kiradi. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy iqtisodiy mexanizmi byedje't tizimi hisoblanadi. Joylarda mahalliy byudje't tushumlarining yangi manbalarni qidirib topish va byudje't intizomiga rioya qilish asosiy vazifalaridan biridir. Hududlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tartibga solishda bevosita boshqaruv usullaridan keng foydalaniladi. Davlat tomonidan iqtisodiy ishloho'llarni rag'batlantirish va ularni chuqurlashtirishni qo'llab-quvvatlash respublika byudje'ti, hududlarga do'latsiyalar va subvensiyalar berish hisobiga maqsadli dasturlar va yirik investitsiya loyihalarini bajarish orqali hududlar rivojlanishiga davlat tomonidan ta'sir qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Hududlar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni tartibga solishda dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish bevosita boshqarishning asosiy uslublaridan biri hisoblanadi. Hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishni tartibga solishning asosiy dastaklari investitsiya va hududiy dasturlar hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash respublikamizda yuritilayo'lgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bir butun tizimini tashkil etgani sababli, uning har bir mintaqasidagi rivojlanishni ta'minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi.

## 1.2 Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholashning asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari.

Endi mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks jihatdan baholovchi ko'rsatkichlar to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hisoblanadi. Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – bu ma'lum bir hududda yil davomida ishlab chiqarilgam tovar va xizmatlarning bozor bahosi. Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) quyidagi formula orqali ifodalanadi:

**YaHM=YaICH-OI (1)**

Bu yerda:

*YaICH*- yalpi ishlab chiqarish;

*OI*- oraliq iste’mol.

Yuqoridagi formula qo’shilgan qiymatni bildirib, hudud bo’yicha yalpi qo’shilgan qiymatni aniqlaydi. Ma’lumki, yalpi ichki mahsulot (YaIM) va yalpi qiymatga yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarga soliqlar qo’shib hisoblanadi va yuqoridagi formula quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi:

$$\mathbf{YaHM = YaICH - OI + S_{mx}} \qquad \mathbf{(2)}$$

Bu yerda:

$S_{mx}$- mahsulot va xizmatlarga soliqlar.

Bundan tashqari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholovchi ko’rsatkichlarga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, xalq istemoli mollari ishlab chiqarish, hududlar iqtisodiyotga jalb qilinayo’lgan investitsiyalar, chakana savdo aylanmasi hamda xizmat ko’rsatish va servis sohasi kabilarni kiritishmiz mumkin.

Har bir hudud, viloyat yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish avvalo, shu joyda yashovchi aholining mehnat faoliyatiga bog’liq. Mahalliy aholining mehnat madaniyati, jamoa ishlaridagi ijtimoiy faolligi, bilim va malakalari, oilaviy tarkibi, yoshi va jinsi shu hududda iqtisodiy taraqqiyotining rivojlanishida katta rol o’ynaydi. Ayniqsa hududdagi mehnat resurslarining soni ish bilan band bo’lganlar, ishsizlik kabi ko’rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Ulardan ba’zilarining hisoblanishini quyidagi formula va misollar oraliq ifodalashga harakat qilamiz. Hududdagi mehnat resurslari soni quyidagi formula orqali hisoblab topiladi:

**MR = B +INF + MM (3)**[1]

Bu yerda:

*B*-ish bilan band aholi;

*INF*- iqtisodiy faol bo’lmagan aholi;

*MM*- ishga joylashtirishga muhtoj aholi (ishsizlar).

Hududdagi aholining savodxonlik darajasi, bilim va ma’lumo’l darajasi kasb ko’rsatkichlar ham aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayo’lida muhim ahamiyat kasb etadi. Har yili mamlakatimizda davlat byudje’tidan YaIM ning 12 foizi miqdoridagi

---

[1] Абдурахмонов Қ.Ҳ. , Шоюсупова Н.Т. “Меҳнат иқтисодиёти:ижтимоий меҳнат муносабатлари”. ТДИУ. Тошкент 2011й. 268 бет

mablag'lar aynan ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shu sababli hududlardagi aholining umumiy ma'lumo'l darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisoblash muhim hisoblanadi. Aholining umumiy ma'lumo'llilik darajasi quyidagi formula orqali topiladi:

$$\mathbf{K_{um} = I_{om} / I_{ch} \quad (4)}$$ [2]

Bu yerda:

$I_{om}$- oily ma'lumo'llilar soni;

$I_{ch}$- band aholining soni.

Keyingi yillarda respublikamiz hududlari yalpi hududiy mahsulotlarida ham barqaror o'sish ko'rsatkichlari qayd e'tilmoqda. Quyidagi 1.2.1-jadval ma'lumo'llariga e'tibor qaratilgan bo'lsak, 2012-yilning 9- oyi davomida respublikamizning yalpi ichki mahsulot 108,2 % ga o'sgan bo'lsa, yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi (110,4 %), Sirdaryo (110,7 %), Xorazm (108,7 %), Namangan (109,6 %), Samarqand (109,7 %) Buxoro (108,6 %) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (110,3 %) yuqori o'sib borilayotgan oqilona ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, hududlarimizda iqtisodiyotimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ishlarining izchillik bilan amalga oshirilishi, chuqur tarkibiy o'zgartirishlar natijasida sanoat mahsulotlari va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmlari ortib borayo'lganligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ijobiy tadbirlar natijasida ushbu tarmoqning yalpi hududiy mahsulotda tutgan o'rni yuqori bo'lib borayo'lganligi hamda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish va servis sohasining tobora rivojlanib borayo'lganligi va boshqalar hududlarimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb e'tmoqda. Albatta, yuqoridagi ijobiy natijalarga o'z-o'zidan erishilgani yo'q. O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, mintaqalar investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish va investitsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ular doimiy tarzda takomillashtirilib borilmoqda. Bu boradagi ishlar yuzasidan to'xtalib, Prezidentimiz jumladan shunday dedilar: " Biz mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadigan investitsiya loyihalarini amalga oshirish yo'lida zarur bo'lgan barcha ishlab chiqarish infratuzilmalarini davlat mablag'lari hisobidan ta'minlash prinsipini nafaqat qabul qildik, balki uni amalda joriy e'tmoqdamiz." Bu esa, o'z navbatida, mamlakat ichki investitsiya salohiyatining yuksalishi va xorijiy investitsiyalaming hajmi yildan-yilga ortib borishini, shunga mos ravishda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, shu jumladan, yalpi ichki mahsulot hajmi ham o'sishini ta'minlamoqda. Hukumatimiz qarorlari, Prezidentimiz farmonlari va qarorlari asosida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda faol investitsiya siyosati amalga oshirib

[2] Якубов И.О. , очилов К.Т., Абдусатторова Х.М., Ситдиқова Л.А. "Стратегик режалаштириш" ТДИУ . Тошкент-2004. 206-бет.

kelinmoqda, Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta’minlash,yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektro’lexnika va to’qimachilik, oziq-ovqat va farmasevtika, axboro’l va telekommunikatsiyalar tarmog’i hamda boshqa yo’nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga alohida e’tibor berilmoqda. Eng muhimi, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan.Ushbu yaratilgan investitsiya muhiti iqtisodiyotimizga jalb qilinayo’lgan xorijiy investitsiyalar hajmini, yildan-yilga ko’payishiga hamda hududlarimiz ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishida muhim ahamiyat kasb e’tib kelmoqda.Shu o’rinda Prezidentimiz I.A.Karimov o’tgan yil yakunlari sarhisobi haqida to’xtalib, jumladan shunday dedilar: "2013-yilda mamlakatimizning yuqori sur’atlar bilan barqaror o’sishini ta’kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga yo’naltirilgan kapital mablag’lar, investitsiyalar tobora o’sib borayo’lganida, bu ko’rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23,1 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishriing ahamiyati benihoya kata bo’lib, birinchidan, xorijiy investitsiyalar ko’magida korxonalarga zamonaviy texnika-texnologiyalar joriy e’tilib, eksportga mo’ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantiriladi, ikkinchidan, import o’rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish va buning uchun xorijiy investitsiyalami iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo’naltirish va pirovardida aholining turmush darajasini oshirish imkoniyati yaratiladi, uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o’sib borayo’lgan aholini ish joylari bilan ta’minlashga ko’maklashadi, to’rtinchidan, korxonalaming eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-texnik bazasi yangilanadi va texnik qayta qurollantiriladi, beshinchidan, tabiiy resurslami qayta ishlovchi korxonalar barpo e’tiladi va hokazo.

1.2.1 jadval

**Respublikamiz mintaqalarida yalpi hududiy mahsulotning o'sish ko'rsatkichlari, foiz hisobida**

| Hududlar | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | 2011 | 2011 I-IIIchorak | 2012 I-IIIchorak |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 107,7 | 107,8 | 107,5 | 108.2 | 110.0 | 112.0 | 112.8 | 110.4 |
| Viloyatlar | | | | | | | | |
| Andijon | 110,1 | 110,6 | 111.3 | 109.6 | 110.5 | 111.3 | 111.1 | 107.3 |
| Buxoro | 105,6 | 109,8 | 104.5 | 104.9 | 109.6 | 109.1 | 110.0 | 108.6 |
| Jizzax | 107,6 | 107,6 | 108.1 | 106.9 | 110.2 | 110.6 | 113.2 | 108.5 |
| Qashqadaryo | 110,0 | 109,2 | 111.2 | 108.2 | 103.9 | 106.3 | 107.1 | 103.1 |
| Navoiy | 105,6 | 104,3 | 105.0 | 108.2 | 102.5 | 106.1 | 106.1 | 104.7 |
| Namangan | 107,7 | 109,7 | 109.0 | 109.9 | 112.4 | 110.0 | 112.7 | 109.6 |
| Samarqand | 109,2 | 111,2 | 107.8 | 109.7 | 113.6 | 110.9 | 114.0 | 109.7 |
| Surxondaryo | 110,0 | 107,7 | 105.1 | 106.8 | 111.2 | 110.9 | 111.1 | 106.5 |
| Sirdaryo | 107,5 | 104,4 | 108.1 | 105.2 | 110.2 | 109.4 | 111.3 | 110.7 |
| Toshkent vil. | 108,5 | 108,9 | 102.7 | 106.4 | 110.1 | 109.2 | 109.3 | 104.9 |
| Farg'ona | 106,4 | 106,2 | 106.0 | 106.8 | 105.8 | 107.9 | 117.2 | 105.9 |
| Xorazm | 107,3 | 106,2 | 106.1 | 106.4 | 110.2 | 108.4 | 110.8 | 108.7 |
| Toshkent shahri | 109,5 | 118,5 | 118.6 | 113.0 | 112.4 | 116.7 | 114.1 | 110.3 |
| O'zbekiston Respublikasi | 107.5 | 109.5 | 109.0 | 108.1 | 108.5 | 108.3 | 108.2 | 108.2 |

**Manba:** *O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. 2012 yil yanvar-sentabr.Toshkent 2012, 87-bet.*

Hududlar eksport salohiyatini rivojlantirish, hududlarga xorijiy investitsiyalami keng jalb etish, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini ko'paytirish, xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish ustuvor vazifalardan bo'lib kelmoqda. Shu maqsadda iqtisodiyotimizga kiritilayo'lgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar ulushi yildan-yilga ortib bormoqda.O'tgan yilda iqtisodiyotimizga 14 milliard 600 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb e'tildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2013-yilga nisbatan 10,9 foizga o'sdi. Jami investitsiyalaming 21,2 foizdan yoki 3 milliard dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ulaming 4 dan 3 qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir."[3]Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan faol investitsiya siyosatidan asosiy maqsad hududlarimizda faoliyat ko'rsatayo'lgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmasevtika, axboro'l telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgandir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlaning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes

---

[3] Халқ сўзи. 2015 йил 17 январь №11 (6194)И.А.Каримов. "2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш- устувор вазифамиздир" мавзусидаги маърузаси

va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish hududiy nazariyalarni o'rganish mamlakatimizda ishlab chiqilayo’lgan va amalga oshirilayotgan hududiy tartibga solish tadbirlari uchun uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab e’tmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori suratlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi.

